

IX 9Belgi

Jamoatning vazifasi nima?



Jonatan
Liman

Jamoatga doir savollar

Jamoatning vazifasi nima?



Muallif: Jonatan Liman

Jamoatga doir savollar

Jamoatga doir savollar to'plami haqidagi ijobiy fikrlar

“Masihilar juda jiddiy savollarga duch kelishadi. Muqaddas Bitiklar qanday qilib jamoatni barpo etadi, sajdani tartibga keltiradi, xizmatni tashkil qiladi va Kalomdagi yo'lboshchilikni ta'riflaydi? Bu “9 Belgi”ga tegishli ushbu yangi to'plamda aniq, diqqat bilan va qiziqarli tarzda javob berilgan savollardan bir nechta misollaridir. Men bu xizmat uchun va uning ko'plab sodiq jamoatlarga favqulodda sog'lom va umid beruvchi ta'siri uchun minnatdorman. Bu to'plamni bajonidil tavsiya qilaman.”

R. Albert Moller (R. Albert Mohler Jr.),
The Southern Baptist
Theological Seminary prezidenti

“Samimiy savollar mulohaza bilan javob berishga arziydi. Agar siz bu savollarga javob berishni nimadan boshlashni bilmasangiz, bu to'plam hovuzga sakrash uchun trampolin sifatida sizga xizmat qilsin. Bu kichik kitoblar qiziqarli darajada maqsadli va bitta do'st yoki yuzlab do'stlar bilan birga o'qish uchun ajoyib tarzda mos keladi.”

Gloriya Furman (Gloria Furman),
Missional Motherhood va
The Pastor's Wife kitoblari muallifi

“Cho‘pon sifatida menga ko‘p savollar berishadi. Menga Xushxabarni tushunishni istayotgan imonsizlar, endi hayotida nima qilishni bilmayotgan yangi imonlilar hamda imonli oila a‘zolari, qarindoshlari, do‘stlari, qo‘shnilari va hamkasblari savollariga javob olishni istayotgan yetuklikka intilayotgan imonilar murojaat qilishadi. Aynan shunday paytlarda ularning savollariga qisqacha javob bera oladigan va keyingi o‘rganish uchun to‘g‘ri yo‘nalish ko‘rsata oladigan kitobim bo‘lishini istardim. Jamoatga doir savollar to‘plami ana shu imkoniyatni taqdim qiladi. Har bir risolada keltirilgan masala Kalomga asoslangan, ixcham va amaliy tarzda yoritilgan. To‘plam Jamoat savollari deb nomlansa bo‘ladi, lekin u “Jamoat javoblari” deb atalishi ham mumkin edi. Men muntazam ravishda ularning bir nechtasini tanlab, boshqalar bilan bo‘lishishmoqchiman. Sizga ham shunday qilishni tavsiya qilaman.”

Xuan R. Sanches (Juan R. Sanchez),
High Pointe Baptist Church katta cho‘poni,
Austin shahri, Texas

“Biz, masihiylar qalin va qimmat kitoblarni varaqlamasdan turib, jamoatdagi masihiy hayot haqida umumiy savollarimizga ishonchli javoblarni qayerdan topa olamiz? Jamoatga doir savollar to‘plami bizning ehtiyojlarimizni Kalomga asoslangan, chuqur o‘ylangan va amaliy bo‘lgan javoblar bilan qondiradi. Cho‘ponlar uchun bu to‘plam jamoat a‘zolarini chuqur donolik va mustahkam birlik sari yo‘naltirish uchun ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.”

Rey Ortlund (Ray Ortlund),
Renewal Ministries prezidenti

JAMOATGA DOIR SAVOLLAR BO'LGAN KITOBCHALAR

***Xudo hammani sevadimi?,*

Matt Mak Kulloh

Menga ustozlik qiladigan odamni qanday topsam bo'ladi?,

J. Garrett Kell

Muqaddas Kitobni o'qishdan qanday qilib ko'proq zavqlana olaman?,

Jeremi Kimbl

Boshqacha siyosiy qarashga ega bo'lgan jamoat azolarini qanday seva olaman?,

Jonatan Liman va Andi Naselli

Jamoatimda qanday xizmat qilishim mumkin?,

Mettyu Emadi

Jamoatimizda qanday qilib sadoqatli cho'ponni topa olishi mumkin?,

Mark Dever

***Ayollar mahalliy jamoatda qanday qilib ruhan o'sishlari mumkin?,*

Keri Folmar

Jamoatdagi intizomiy chorani qo'llash sevgi amalimi?,

Jonatan Liman

Ibodot qilishni xohlamasam-chi?,

Jon Onvuchekva

Jamoatga borishni xohlamasam-chi?,

Gunner Gundersen

Xushxabarchilik faoliyatimdan qoniqmasdan, umidsizlikka tushsam-chi?

Isaac Adams

Hozir men masihiyman, nima qilishim kerak?

Sam Emadi

Rabbimiz Kechligi nima uchun bu qadar muhim?

Aubrey Sequeira

Nima uchun cho'ndirilishim kerak?

Bobby Jamieson

***Jamoatimga nima uchun qurbonlik berishim kerak?*

Jeymi Dunlop

Nima uchun jamoatga qo'shilishim kerak?

Mark Dever

***Jamoatning vazifasi nima?*

Jonatan Liman

Men najotga erishganimga qanday amin bo'lishim mumkin?

Jeremi Pierre

Ayol kishi cho'pon bo'lishi mumkinmi?

Greg Gilbert

Jamoatga qatnamaydigan a'zolar borasida nima qilishimiz mumkin?

Aleks Dyuk

Men xizmatga da'vat etilganmanmi?

Brad Vhiler

Xalqaro elchilik xizmatini qanday qo'llab-quvvatlashim mumkin?

Mark Kollins

Xushxabar sog'lik va farovonlik va'da qiladimi?

Shon DiMars

Jamoatni kim boshqaradi?

Sam Emadi

Diakonlar (xizmatchilar) nima qilishadi?,

Xuan Sanches

Men jamoatda nimani izlashim kerak?,

Aleks Dyuk

Do'zax haqqoniyimi?,

Deyn Ortlund

Men nimaga ishonishim ahamiyatga egami?,

Samuel James

Eski Ahd chindan ham Isoga ishora qiladimi?,

David King

Muqaddas Kitobni o'rgatishni qanday boshlasam bo'ladi?,

David Helm

Cho'ponlarimni qanday rag'batlantirsam bo'ladi?,

Kamrin Zamora

Qanday qilib mehmondo'stlikda o'sishim mumkin?,

Keri Folmar

Yakshanba kungi xizmatlardan qanday qilib ko'proq marhamat olishim mumkin?,

Erin Uiler

Boshqalarga qanday ustozlik qilishim kerak?,

J. Garret Kell

Gunoh va vasvasaga qarshi qanday kurashishim kerak?,

J. Garret Kell

Boshqalarga Xushxabar aytishni qanday boshlashim kerak?,

Mak Stayls

Xudo haqiqatan ham oliy-hukmronmi?,

Konrad Bivi

Xudoning elchisi bo'lishim kerakmi?,

Endi Jonson

Jamoatimdan ranjigan bo'lsam-chi?,

Daniel Miller

Jamoat nima?,

Mettyu Emadi

****O'zbek tilida mavjud**

Jamoatning vazifasi nima?

Muallif: Jonatan Liman

Jamoatga doir savollar

CROSSWAY

Wheaton, Illinois

Church Questions

What is the Church's Mission?

Jonathan Leeman

CROSSWAY
Wheaton, Illinois
2022

Jamoatning vazifasi nima?

Jonatan Liman tomonidan

Mualliflik huquqi © 2026 yil

Marvarid Xizmatlari



What Is the Church's Mission?

By Jonathan Leeman

Copyright © 2022 by "9Marks"

Published by Crossway, 1300 Crescent ko'chasi, Uiton shahri, Illinoys shtati 60187 da chop etilgan.

Barcha huquqlar himoyalangan. Bu nashrning biror qismi qayta chiqarilishi, qidirish tizimida saqlanishi yoki boshqa shaklda, boshqa yo'l bilan, elektron, mexanik, fotonusxa, ko'chirib olish yoki boshqa usul bilan nashriyotni oldindan ogohlantirmay yetkazilishi mumkin emas. AQShning mualliflik huquqida ko'zda tutilgan qonunlari bundan mustasnodir. Crossway AQShda ro'yxatdan o'tgan savdo belgisi hisoblanadi.

Originally published in English by Crossway with all International rights owned by Crossway and 9Marks

This edition published by arrangement with 9Marks.

All rights reserved.

Muqaddas Bitiklardan parchalar 2023 Muqaddas Yozuvning [MY] So'zma-So'z Tarjimasidan olingan. Ruxsat bilan ishlatiladi. Barcha huquqlar himoyalangan.

Muqaddas Bitiklardan olingan parchalardagi ta'kidlar muallif tomonidan kiritilgan.

9Marks ISBN: 979-8-89218-230-0

Iso ularga yaqinlashib, shunday dedi:

“Osmonda ham,
yerda ham bor hokimiyat
Menga berilgan. Shunday ekan,
boringlar va barcha
xalqlardan shogird orttiringlar.

Ularni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh
nomi bilan suvga cho‘mdirib,
Men sizlarga buyurgan barcha
narsalarga rioya qilishni o‘rgatinglar.

Mana, to dunyoning oxirigacha har kuni
Men sizlar bilan birgaman. Omin”.

Matto 28:18-20



Jamoatning vazifasi haqidagi kitob biroz mavhum yoki akademik bo‘lib tuyuladimi? Ehtimol, bu sizning kundalik masihiy hayotingizga uncha mos kelmas?

Men buning, ayniqsa, siyosiy va madaniy notinchlik zamonida juda dolzarbligini va muhim ahamiyatga ega ekanligini aytmoqchiman.

Odamlar siyosiy bo‘linish yoki madaniy tanazzul bosimini his qilishganida, ular gaplashmoqchi bo‘lgan narsa faqatgina shundan iborat bo‘lib qoladi. Ular ijtimoiy tarmoqlarda "Hozir o‘z munosabatimizni bildirish va kurashishning ayni vaqti" deb yozadilar. Bu haqida yozayotgan paytimda siyosiy konservativ masihiylar LGBT+ (to‘liq talqini: lesbian, gey, biseksual va transseksual odamlarni nomlashda ishlatiladi) inqilobchilariga va diniy erkinlikka tahdidlarga javoban shunday deyishmoqda. Ba'zi masihiylar irqchilik va tizimli adolatsizlik haqida ham shunday deyishadi. Qancha masihiylar COVID-19 karantinlari, niqoblari yoki vaksinalariga javoban o‘z munosabatlarini bildirishga qaror qilishdi?

Shunga qaramay, qayerda bo'lishingizdan va qaysi davrda yashashingizdan qat'i nazar jamoatning vazifasi mavzusini ko'rib chiqishda zudlik bilan harakat qilish fikri e'tiborga loyiqdir. Jamoatning vazifasi – Iso jamoatni bajarishga chaqirgan amaldir, lekin U bizni bajarishga chaqirgan amalga bo'lgan ishonchimiz ko'pincha, nafaqat U tomonidan, balki biz boshdan kechirayotgan siyosiy yoki iqtisodiy qiyinchiliklar bilan ham shakllanadi. Ushbu haqiqatlar eng dolzarblari deb hisoblanadi. Shunday qilib, agar siz masihiy sifatida Muqaddas Kitobingizni ochib, ushbu qiyinchiliklarga zig'irchalik bog'liq bo'lgan biron bir narsani topa olsangiz, jamoatning vazifasini o'sha qiyinchiliklar atrofida shakllantirishga harakat qilasiz.

Behalovat bo'lyapsizmi? Muqaddas Kitob zulmga qarshi turadi. Shu sababli, jamoat zulmga qarshi turish uchun mavjud deb aytishingiz mumkin.

Millatingizning ma'naviyati tanazzulga yuz tutishidan hech xavotirlanganmisiz? Muqaddas Kitob millatning ma'naviyati tanazzulga yuz tutishiga qarshi turadi. Shunday ekan, jamoat millat ma'naviyatini himoya qilish uchun mavjud deyishingiz mumkin.

Adolatli hukumatga befarq emasmisiz? Kambag'allar haqidachi? Moddiy marhamatlar haqidachi? Hayotingizdan maqsad topish haqidachi? Oilangizning sog'ligi haqidachi? Muqaddas Kitobda bularning barchasiga e'tibor qaratilgan. Shuning uchun, jamoat asosan, shu narsalar uchun mavjud deb aytishingiz mumkin. Hech bo'lmaganda bu sizda kuchli xohish uyg'otadi.

Men shunday cho'ponlarni bilamanki, ular yigirma yil avval odamlarga qanday ovoz berishni o'rgatish yoki ko'cha namoyishlariga yetakchilik qilish ularning xizmat vazifasiga kirmaydi, deb ta'kidlashgan.

Shubhasizki, ba'zan o'z fikrimizni bildirish yoki noodatiy ishlarni qilish kerak bo'lgan paytlar bo'lib qoladi. Aynan shu paytlarda jamoatlarimiz izdan chiqib ketmasligi uchun yana ham ehtiyot bo'lishimiz kerak. Nizolar kuchayganda vasvasaga berilish ko'payadi. Hammasidan ham ko'proq, madaniy tartibsizliklar va siyosiy g'alayonlar davri Muqaddas Kitobni o'rganishimizni ikki baravarga oshirishimizni talab qiladi.

ISH KUNLARI VA DAM OLISH KUNLARINGIZNI QANDAY O'TKAZASIZ?

Umuman olganda, jamoatning vazifasi haqidagi turli qarashlar masihiycha hayot haqida turlicha fikr yuritishga olib keladi. Ish kunlaringizdan boshlang. Kasbiy xizmatga borish yaxshiroqmi? Agar unday bo'lmasa, masihiylikka bog'liq ravishda ishingizga qanday munosabat bildirasiz?

Oqshom paytlaringiz va shanba kunlaringiz haqida o'ylab ko'ring. Qo'shnilaringiz bilan tanishishni birinchi o'ringa qo'yishingiz kerakmi? Xushxabar aytishni? Boshpanasizlarga xizmat ko'rsatadigan joylarda ko'ngilli bo'lib xizmat qilish haqidachi? Siyosatga ko'proq aralashish haqidachi?

Yakshanba kunlari haqida aytadigan bo'lsak, jamoat yig'ilganda nima bilan mashg'ul bo'lishi kerak – masihiylarga Xushxabar aytishni o'rgatish kerakmi

yoki tizimli adolatsizliklarga qarshi kurashishni o'rgatishi kerakmi? Qanday ishlarni birgalikda bajarishim kerak – xizmat safarlarigami yoki boshpanasiz odamlarga ovqat beradigan oshxonalariga homiylik qilishimiz kerakmi?

Bu kabi savollar masihiylarning yuragiga og'ir botishi mumkin va biz yetarlicha xizmat qilmayotganimiz uchun o'zimizni aybdor his qilishimiz mumkin. Albatta, Iso odamlarni hamma narsadan voz kechib Unga ergashishga chaqiradi. Lekin amalda bu nimani anglatadi?

Bunday olib qaraganda, jamoatning vazifasi haqidagi suhbat kelgusi hafta vaqtingizni qanday o'tkazishni hal qilishdan ko'ra ko'proq ahamiyatga ega. Bu suhbat butun hayotni va koinotni, hozirgi va kelajakdagi narsalarni, hatto jannat va do'zaxni ham o'z ichiga oladi. Agar do'zax haqiqatan ham mavjud bo'lsa va tavba qilmagan odamlar haqiqatan ham u yerga boradigan bo'lsa va ularni ogohlantirish haqiqatan ham jamoatingizning vazifasi bo'lsa, siz va men bu haqiqatni tezda hal qilishimiz kerak.

Haqiqatan ham, jamoatning vazifasi haqida qayg'urishingiz kerak, chunki masihiy sifatida noto'g'ri narsalar haqida qayg'urish emas, balki hayotingizni to'g'ri narsalarga, ya'ni muhim narsalarga bag'ishlashingiz kerak.

QANDAY JAMOATDA A'ZO BO'LASIZ?

Jamoatning vazifasi haqidagi suhbat siz qanday jamoatda a'zo bo'lishingizga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Turli jamoatlar yuragingizni, ruhiy hayotingizni va ibodatingizni o'zgacha shakllantiradi. Jamoatingiz “odatiy, to'g'ri masihiylik” deb hisoblagan narsani siz

ham tez orada “odatiy, to‘g‘ri masihiylik” deb hisoblay boshlaysiz. Va’zxon va jamoat a’zolari ma’lum bir mavzuga alohida urg‘u beradigan jamoatga bir necha yil borsangiz, siz ham tez orada ana shu mavzuga e’tibor qaratasiz. Agar ular boshqa mavzu haqida gapirsa, siz ham ana shu mavzuda gapira boshlaysiz.

Shu sababli, hayotingizdagi eng muhim ruhiy maqsadlaringizdan biri quyidagicha bo‘lishi lozim: o‘zingiz va oilangiz vazifasi Muqaddas Bitikning ta’limotini aks ettiradigan jamoatga borishingiz hamda o‘sha jamoat a’zosi bo‘lishingiz kerak.

Shunday bo‘lsa ham e’tiborli bo‘ling. Men e’tiboringizni o‘z veb-saytlarida bir xil imon guvohliklarini joylashtirgan to‘rtta jamoatga qaratmoqchiman. Biror yakshanba kuni ertalab ushbu to‘rtta jamoatga borib, ularning sarf-xarajatlarini tekshiring yoki cho‘ponlarning ijtimoiy tarmoqdagi sahifalarini tomosha qiling, shunda siz bu jamoatlar turli qo‘llanmalarga amal qilishini bilib olasiz.

Birinchi jamoat Buyuk Topshiriq va Isoning shogird orttirish haqidagi buyrug‘iga e’tibor qaratadi. Biroq, ular "shogirdlar orttiring" deganda, "imomlilarni ko‘paytirishni" nazarda tutishadi. Shunday qilib, birinchi jamoat mahalliy jamoatlar asosan Xushxabarni yetkazish uchun mavjudligi sababli jamoatdagi hamma narsani masihiy bo‘lmaganlarga qaratadi. Ularning ba’zilar masihiycha o‘sinh haqida gapirsa-da, ularning dasturlari Masihning tanasi yoki oilaga emas, balki har bir alohida shaxsga qaratilgan. Ular o‘zlarining Xushxabarini yoyish va yorqin, birlashgan, ruhiyati o‘zgacha oila bo‘lish o‘rtasidagi

bog'liqlikni fahmlamaydilar. Birinchi jamoatning vazifasi qo'llanmasiga asoslanib, keling, uni *Izlovchilar Jamoati* deb ataylik.

Ikkinchi jamoat birinchi jamoatga (Izlovchilar jamoati) o'xshaydi, lekin u o'rta tabaqali ijtimoiy guruhning maqsad kabi narsalarga bo'lgan intilishlariga kamroq murojaat qilib, ko'proq insonning sog'liq va boylikka bo'lgan asosiy istaklariga murojaat qiladi. Ularning yakshanba kunidagi xizmatida bizda yetarlicha imon bo'lsagina, Xudo bizni barakali qilishni xohlashi haqida eshitasiz. Ushbu jamoatning kitobiga asoslanib, keling, ikkinchi jamoatni *Farovonlik Jamoati* deb ataymiz.

Birinchi va ikkinchi jamoatlar Iso yer yuziga biz uchun kelganini ta'kidlasa, uchinchi va to'rtinchi jamoatlar biz yer yuzida Iso uchun yashashimiz kerakligini ta'kidlaydi. Uchinchi jamoatni biz *Adolat Jamoati* deb atashimiz mumkin. Yakshanba kuni ularning xizmatiga borganingizda siz va'zxonning biz bechoralarga g'amxo'rlik qilishimiz, millatning tuzilmaviy adolatsizliklariga ko'zimizni kattaroq ochishimiz, atrof-muhitga e'tibor berishimiz va umuman olganda dunyoda yaxshilik qilishimiz kerakligi haqida va'z qilayotganini eshitasiz.

To'rtinchi jamoat uchinchi jamoatning yana bir turidir, ammo u homilani oldirish, bir jinsli nikoh va diniy erkinlik kabi siyosiy konservatorlarga tegishli bo'lgan tizimli adolatsizliklarga e'tibor qaratadi. Uni *Solih Millat Jamoati* deb nomlang. U xalqni axloqiy tanazzuldan qutqarib, uni masihiylik uchun xavfsiz holga keltirishni xohlaydi.

Eng yaxshi jihati, Adolat Jamoati ham, Solih Millat Jamoati ham shogird orttirishga, masihiylarning ruhiy holatiga va birodarlarimizni sevish buyrug'iga e'tibor qaratadi. Eng yomoni, ular Farziylik tomon sekin-sekin qadam qo'yishlari mumkin, ya'ni Muqaddas Bitikda mavjud bo'lmagan qonunlarni va siyosiy qarorlarni yaratishadi. Yakshanba kuni jamoat a'zolari jamoatdan keta turib, hayotlaridagi inoyat uchun Xudoga shukrona keltirishmaydi, balki ruhiy va siyosiy e'tiqodlari tufayli o'zlarini boshqa odamlardan ustun deb hisoblashadi.

Shuni tan olish kerakki, bunday misollardan talayginasini ko'plab jamoatlarda ko'rishimiz mumkin. Jamoatingizni masxara qilish fikridan yiroq holda, hammamiz ehtiyotkor bo'lishimiz uchun shunchaki har xil shaxslarni yoritib berayapman.

Qolaversa, men jamoatlar orasidagi ba'zi farqlar Xudodan ekanligiga ishonaman. Xuddi Uoll-stritda ishlaydigan yakka tartibdagi masihiy kishi va xaroba maktabda o'qituvchilik qiladigan kishi har xil kundalik vazifalariga ega bo'lgani kabi, shahar chekkasidagi jamoat kuchli qalb vasiyligi xizmatiga ega bo'lsa, qochqinlar lageriga yaqin joylashgan qo'shni jamoat esa kambag'allarga xizmat qilishda ustun bo'lishi mumkin. Xudoga hamdu sanolar bo'lsin!

Shunga qaramay, bizni o'rab turgan iqtisodiy muammolar va siyosiy o'zgarishlarga *sezgir bo'lish* va bu muammolar va o'zgarishlar tomonidan *boshqarilish* o'rtasida farq bor. Jamoatlar tashqi ta'sirlar orqali boshqarilganda, ularning qo'llanmalari — ya'ni o'z vazifalariga bo'lgan qarashlari — osonlikcha

Muqaddas Kitobdagi noto'g'ri yondashuvlarga va dunyoviy qarashlarga bo'ysunadi. Ushbu to'rtta jamoat Kalomda asoslangan e'tiqodiga ega bo'lishiga qaramasdan, Izlovchilar Jamoati moddiylikka, Farovonlik Jamoati materializmga, Adolat Jamoati siyosiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga va Solih Millat Jamoati millatchilikka berilib ketganlik alomatlarini ko'rsatadi.

Agar siz va men boshqa zamon va millatga mansub bo'lsak, siz turli jamoatlarga nisbatan boshqacha firka bo'lishingiz mumkin. Muammo yo'q. Ko'rganingizni tasvirlab bering. Lekin siz bir narsani tushunishingiz kerak: jamoatning vazifasi haqida gapirganimizda, uning qo'llanmasi bizning ba'zan yaxshi, ba'zan yomon vaqtincha davom etadigan tashvishlarimizga asoslanib yozilishiga osongina imkon bergan bo'lamiz. Biz bunday narsalarga ortiqcha urg'u va noto'g'ri tavsif berib, hattoki ularni ruhiy butga aylantirib qo'yishimiz ehtimoldan yiroq emas. Bu g'alati tuyulishi mumkin, lekin jamoat aslida Muqaddas Kitob tomonidan tasdiqlangan narsalarni targ'ib qilishi va baribir dunyoviy qarashlarga tayanishi mumkin.

Yuqorida aytib o'tgan fikrimga qaytadigan bo'lsak, qaysi jamoatga qo'shilish haqida qaror qilish siz qilishingiz mumkin bo'lgan eng muhim ruhiy qarorlardan biridir, chunki jamoatingiz sizni dunyoviy qarashlar yoki Muqaddas Kitobga oid narsalar bilan turli darajada shakllantirishi mumkin. O'z navbatida, siz oqshomlaringizni va dam olish kunlaringizni, ishingiz va oilangizni yaxshiroq yoki yomonroq maqsadlarga bag'ishlaysiz.

SHOGIRD ORTTIRISH, SHOGIRD BO‘LISH

Keling, ushbu kitobda tavsiya etilgan jamoat qo‘llanmasini taqdim etadigan beshinchi jamoatni tasvirlab beray. Men bu jamoatni *Shogirdlar Jamoati* deb atayman. Izlovchilar Jamoati singari, Shogirdlar Jamoati ham bizning vazifamiz Buyuk Topshiriqdan – “Shogird orttirish” dan kelib chiqqanini aytadi. Shunga qaramay, Adolat Jamoati va Solih Millat Jamoatidagi a’zolar lokomotivga ulangan poyezd uning orqasidan ergashganidek, “Xudoni sev va yaqiningni sev” degan Buyuk Amrga ergashganlarini eshitishdan xursand bo‘lishadi. Axir, Buyuk Topshiriq bizga “shogird orttirishni” buyuradi, shu bilan birga “[Isoning] amrlarini bajarishni” ham buyuradi.

Shogirdlar Jamoatining haftalik yig‘ilishida qatnashsangiz, bizning gunohimiz va Xudoning hukmi haqidagi yomon xabarni eshitasiz, lekin keyin Iso Masih bizni gunohdan ozod qilish uchun to‘lov sifatida o‘lishi va tirilishi haqidagi Xushxabarni ham eshitasiz. Ushbu Xushxabarni yodda tutgan holda, bu jamoat “shogird orttirish” uchun ishlaydi. Shogird Isoning izdoshi hisoblanadi.

“Shogird orttirish” faqatgina Xushxabarni yetkazish va odamlarga masihiy bo‘lish uchun yordam berish bilan cheklanib qolish degani emas, balki odamlarga masihiy bo‘lib shakllanishda yordam berishni ham o‘z ichiga oladi. Keling, shu to‘g‘risida bir fikr yuritib ko‘ramiz. Daraxt ustida uycha, tort yoki boshqa biror narsani “tayyorlash” degani ham ishni boshlash, ham uni oxiriga yetkazish demakdir. Faqat pishirilmagan xamir solingan idishni ko‘rsatib, “men tort tayyorladim” deb bo‘lmaydi.

Xuddi shunday, Isoning shogirdlar tayyorlash haqidagi amri odamlarni imonga choʻmdirish va Uning barcha buyruqlariga itoat etishni oʻrgatishni oʻz ichiga oladi. Bu butun masihiy hayotini – chaqaloqlikdan yetuklikkacha kamrab oladi.

Shu sababli, Pavlus aytganidek, "hammamiz imonning va Xudoning Oʻgʻlini tanib-bilishning birligiga kelib, mukammal insonga, ya'ni Masihning toʻla-toʻkisligining yetukligi me'yoriga erishish uchun" (Efesliklarga 4:13), Shogirdlar Jamoati har hafta odamlarga Isoga ergashishga yordam berish uchun yigʻiladi.

Shunga qaramay, Shogirdlar Jamoati, boshqa toʻrtta jamoat koʻp hollarda inobatga olmaydigan narsani, ya'ni masihiycha hayot yakdillikdan iborat (korporativ) ekanligini ta'kidlab unga alohida urgʻu beradi. Biz qayta tugʻilganimizda, biz yana oilada tugʻilamiz (1–Petrus 2:10 ga qarang). Yetuklik, biz koʻrib guvohi boʻlganimizdek, "imonning . . . birligiga . . . erishish" bilan belgilanadi. Aslida, Pavlusning soʻzlariga koʻra, "butun tana bir-biriga bogʻlangan boʻgʻinlar orqali oʻzaro ulanib va birikib, sevgi bilan oʻzini barpo qilishi uchun oʻz me'yorida har bir a'zoning gʻayratli harakati boʻyicha tanani oʻstiradi" (Efesliklarga 4:16). Bu – murakkab jumla, lekin uning mohiyati shundaki, yetuklik – Masihning tanasi sevgi orqali oʻsib, mustahkam boʻlib borishini anglatadi.

Bu haqiqatni tushunish jamoatning vazifasi haqidagi suhbat uchun juda muhim, chunki bu biz ikkita vazifa – butun ruhiy oilaning va ruhiy oiladagi har bir a'zoning vazifasi, ya'ni "bizning" va "sizning" vazifangiz

deb atalmish vazifalar haqida o'ylashimiz kerakligini anglatadi. Iso bir oila bo'lib birgalikda harakat qilishimiz uchun butun oilaga ma'lum vazifalarni yuklagan va U alohida a'zolar sifatida har birimiz uchun boshqa vazifalarni belgilab qo'ygan. Oilaning mustahkam bo'lishi butun oilaning vazifasi, lekin sizning burchingiz bolalaringizni sevish, ishga borish va qo'shnilaringiz bilan iliq munosabatda bo'lishdir.


Ushbu tafovutni farqlay olmaslik jamoat vazifasi mavzusida ko'plab tushunmovchiliklarga sabab bo'ladi. Agar siz biror bir masihiy do'stingizdan: "Jamoatning vazifasi nima?" deb so'rasangiz, u butun jamoatni hisobga olgan holda "bizning" vazifamiz degan javobni berishi mumkin. Agar siz boshqasidan so'rasangiz, u har bir a'zoni hisobga olgan holda "sizning" vazifangiz degan javobni berishi mumkin. Shunga qaramay, har biri o'ziga xos bo'lsada, bizga ikkala javob ham kerak.

Shogirdlar Jamoatining nazdida jamoatning vazifasi nima?

- Bizning vazifamiz jamoat va butun oila sifatida birgalikda harakat qilib, *shogirdlar tayyorlashdir*.
- Hafta davomida alohida jamoat a'zolari sifatida yashab, bizning vazifamiz *shogird bo'lishdir*. Bu har bir oila a'zosining butun hafta davomidagi vazifasidir.

"Shogird bo'lish" deb atalgan kattaroq doira va uning ichida "shogird tayyorlash" deb nomlangan kichikroq ikkita doirani ko'z oldingizga keltiring. Jamoat a'zosi sifatidagi hayotiy vazifangiz shogird

bo'lish deb nomlangan katta doiraga kiritilgan barcha narsadir. Ammo siz butun jamoat bo'lib harakat qilish uchun yig'ilganingizda, sizning birgalikdagi aniq vazifangiz shogirdlar tayyorlashdir.



Huquqshunoslik maktabi va huquqshunos, tibbiyot maktabi va shifokor o'rtasidagi munosabatlar haqida o'ylashingiz mumkin. Huquqshunoslik maktabi va tibbiyot maktabi doiralarida bitta vazifa bor (huquqshunos va shifokorlar tayyorlash), huquqshunos va shifokorlarning o'zlarida esa boshqa vazifa mavjud (huquqshunos va shifokorlar bo'lish).

Keyinroq yana bir tushuntiradigan yaxshi misolim elchixonona va elchi o'rtasidagi munosabatlardir. Jamoatlarimiz elchixonalar va har birimiz elchimiz.

SHOGIRD BO'LIHDA SHOGIRD TAYYORLASH MEZONI

Bahsga kirishishdan oldin jamoatning vazifasi haqidagi ikki xil munozara o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsatib berishimga ijozat bering. *Shogird orttirish shogird bo'lishda* asosiy rol o'ynaydi. Jamoat a'zosi: "Men shogirdlar tayyorlash haqida qayg'urishim shart emas. Bu butun jamoat yoki jamoat rahbarlarining ishidir" deb aytolmaydi. Yo'q. Bu shogird bo'lishning asosiy qismi.

Yuqoridagi ikki doira rasmiga yana qarang, lekin endi uni quyosh tizimi sifatida tasavvur qiling. Butun masihiycha shogirdlikni ifodalovchi bu kattaroq doira sayyora orbitasiga o'xshaydi. Mahalliy jamoatlar sifatida bizning yig'ilishlarimizni va biz birgalikda bajaradigan ishni ifodalovchi kichikroq doira quyoshga o'xshaydi. Birinchidan, biz o'zimizni yanada aniqroq ko'rishimiz uchun hayotimizga quyosh o'z nurini sochib uni yoritadi ("Men o'zimni juda yaxshi turmush o'rtoq deb hisoblardim, lekin va'zni tinglar ekanman, hali o'z ustimda jiddiyroq va ko'proq ishlashim kerakligini anglab yetdim!"). Ikkinchidan, bu bizning butun hayotimizga to'rtishish kuchi ta'sirini ko'rsatib, hayotning har bir jabhasiga "shogird tayyorlash" o'lchovini baxsh etadi.

Farzandlarim uchun nonushta tayyorlayman. Nima uchunligini bilasizmi? Chunki men ularning ovqatlanishlarini xohlayman hamda samoviy Otaning ularga bo'lgan sevgisini his qilishlarini ham xohlayman. Men ularning shogird bo'lishlarini xohlayman.

Men xodimlar yig'ilishida qatnashaman va umuman qiziqarli bo'lmagan hisobotlarni tinglayman, ammo diqqat bilan eshitishga harakat qilaman.

Bilasizmi nega? O'z ishimni yanada yaxshiroq bajara olish uchun va shu bilan birgalikda Masihning barchaga bo'lgan sevgisini namuna qilishni xohlaganim uchun. Men ularning shogird bo'lib yetishishlarini istayman.

Men uyimning yerto'lasidagi qo'shimcha yotoqxonaning yonida dush o'rnatmoqchiman. Nima keragi bor, deb o'ylashingiz mumkin. Sababi, uyimizga kelgan mehmonlar yuqori qavatga chiqmasdan qulay tarzda dush qabul qilishlarini, shu bilan birgalikda men uyimiz mehmondo'stlik uchun qulay joy bo'lishini, bu orqali Masihning bizga beradigan marhamatini ko'rsatishni xohlayman. Men barcha mehmonlarimiz shogird bo'lishlarini yoki shogird bo'lib shakllanishlarini xohlayman.

Siz ushbu misollarni hayotingizning har bir jabhasida, masalan: bolalarni tarbiyalashda, san'at va sport bilan shug'ullanishda, bog' barpo etishda, siyosat bilan mashg'ul bo'lishda, ta'tilga chiqishda qo'llashingiz mumkin. Masihiy sifatida siz Masih bilan birlashgansiz va qilayotgan har bir ishingiz Masihni ko'rsatadi. Shunday ekan, qilayotgan har bir amalingiz shogird tarbiyalash jihatiga ega. Darhaqiqat, qo'shnilarimizni yaxshi ko'rishning oliy va eng yaxshi yo'li ularni Xudoga yo'naltirishdir. Avgustinning aytishicha, onaga yoki aka-ukaga, do'st yoki hamkasbga, turmush o'rtog'iga yoki begonaga bo'lgan sevgi Masihga bo'lgan sevgiga o'xshamasa, unda u umuman sevgi emas.¹

1. Avgustin, *Masih ta'limoti haqida*, D. V. Robertson tarjimasi (Indianapolis: Bobs-Meril kompaniyasi, 1958), 3.10.16; 1.23. [Augustine, *On Christian Doctrine*, trans. D.W. Robertson (Indianapolis: The Bobbs-Merrill Company, 1958), 3.10.16; 1.23].

Bundan tashqari, bu butun jamoatning haftalik ishi bo'lib, bu bizning haftamizning qolgan qismida ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Haftamizning qolgan qismida jamoatning ishi bilan birgalikda yig'ilganimiz shogird bo'lish va shogird orttirish kabi fikrlash tarziga biz ega bo'lishimizga yordam beradi. Aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, biz har kunimiz, har soniyada shogird tayyorlash haqida o'ylab yurmaymiz. Biz bolalarimizni tarbiyalash haqida o'ylaymiz ("Xotinim bugun ularni maktabdan men olib ketishimni aytganmidi?"), ishimiz haqida o'ylaymiz ("Ushbu ish taklifini yaxshi bajara olaman, deb umid qilaman"), mashinani ta'mirlash haqida o'ylaymiz ("Nega rul doim chap tomonga tortadi?"). Shunga qaramay, biz bu vazifalarning barchasini, qaysidir ma'noda, *shogirdlar orttirishni* nazarda tutgan holda olib boramiz. Biz farzandlarimiz, hamkasblarimiz, mexaniklarimiz, hatto dushmanlarimiz ham Masihni bilishlarini istaymiz. Shuningdek, jamoat a'zolarimiz Masihni ko'proq bilishlarini istaymiz.

Axir, hayotda Masihni bilishdan va biz qilgan hamma narsada va hamma joyda Masihni his qilishdan ko'ra yaxshiroq va zavqliroq hech narsa bo'lmasa kerak.

Shunga qaramay, men hozirgacha faqat o'z xulosalarimni aytib o'tdim. Lekin hali dalil keltirmadim. Haqiqatan ham Muqaddas Kitob ta'limotlari shundaymi va u nimani birinchi o'ringa qo'yadi? Shogirdlar Jamoati nima uchun o'z qo'llanmasida shogirdlar orttirishni birinchi o'ringa qo'yishini, shuningdek, nega men jamoat vazifasini *shogird orttirish* va *shogird*

bo'lishga ajratganimni tushunishingizga yordam berishi uchun biz uchta savol berishimiz kerak.

BIRINCHI SAVOL:

INSONIYATNING ENG KATTA MUAMMOSI NIMA?

Ushbu birinchi savolni bunday munozaralarda so'rashni biznes-tadbirkor va sobiq oqsoqol do'stim Sebastyandan o'rganganman. Oqsoqollar yig'ilishidagi murakkab suhbatlar chog'ida u "Biz bu yerda qanday muammoni hal qilmoqchimiz?" deb so'rab, nomutanosib tarzda munozaralarimizga diqqatni qaratardi.²

Xuddi shunday, jamoat o'z vazifasi haqida o'ylashga kelganda, u o'zidan so'rashi kerak: biz bu yerda hal qilmoqchi bo'lgan eng katta muammo nima?

Izlovchilar Jamoati gunoh tilidan foydalanadi, lekin u gunoh g'oyasini moddiy va terapevtik tarzda ifodalaydi. Go'yo siz psixologning divanida o'tirgandek, va'zxon sizning his-tuyg'ularingiz va *nimani xohlayotganingizga* murojaat qiladi. Sizning gunohingiz – siz chin dildan, o'zingiz xohlagandek ota yoki ona, do'st yoki qo'shni bo'lishingizga xalal beradigan o'sha kichkinagina xudbinlikdir. Bu esa Xudoning sizga bo'lgan muhabbatiga ishonmasligingizdan dalolat beradi. Izlovchilar Jamoati Iso bu muammolarni hal qilishda sizga yordam berishini aytadi.

Farovonlik Jamoati ham gunoh tilidan foydalanadi, lekin bu jamoat *moddiylikka* urg'u

2. Boshqa shaxslar ishtirokidagi shaxsiy hikoyalar ularning ruxsati bilan ushbu kitobchada bayon etildi. Ko'pincha taxalluslar maxfiylik uchun ishlatilgan.

beradi. Sizning gunohingiz imoningizning sustligi bo'lib, u xuddi Xudoning moddiy ne'matlari oqib o'tadigan quvurning tiqilib qolishiga o'xshaydi. Har biriga kamida qancha e'tibor berilganligini hisobga olgan holda, gunoh va aybdorlik la'natga olib kelgan muammodan ko'ra, Xudo la'natining natijalari bo'lmish yetishmovchilik va o'lim muammolarini yechish kerak.

Adolat va Solih Millat Jamoatlari ham gunoh tilidan foydalanishadi, ammo ular ko'proq *mantiqqa* urg'u berishadi. Ota-ona yoki sudya kabi, ularning va'zxonlari sizning *hayot tarz*ingiz bilan qiziqishadi. Adolat Jamoati biz kambag'allik, talabga javob bermaydigan uy-joy, kamchiligi bor maktablar, nosog'lom muhit, irqchilik va tuzilmaviy adolatsizliklarda ko'radigan nohaqliklar haqida ko'proq va ilg'or fikr yuritadi. Shu bilan birga, Solih Millat Jamoati hatto ularni shunday deb atashmasa ham turli tuzilmaviy adolatsizliklar bo'lmish ajrashish haqidagi qonun, bir xil jinsli nikoh, diniy erkinlikka to'siqlar, ommaviy axborot vositalarining tarafkashligi, homilani oldirish, LGBT va davlat maktablaridagi kun tartibi va yana boshqa ko'plab narsalar haqida kengroq fikr yuritadi.

Nihoyat, Shogirdlar Jamoati hayotimizning terapevtik, moddiy yoki axloqiy jihatlarini inkor etmaydi. Bu jamoat hayotingizda Xudoning maqsadini bilib olishingizni, Uning ajoyib va moddiy ne'matlaridan bahramand bo'lishingizni, to'g'ri va adolatli yashashingizni xohlaydi. Bu jamoat bunday tashvishlar markaziy o'rinni egallaganida biz ehtimol

iste'molchilikka, moddiylikka yoki axloqsizlikning boshqa turlariga berilib ketishimizni biladi.


Shogirdlar Jamoati gunoh haqida gapirganda, *teologiyaga* ko'proq urg'u beradi. Xudoga nisbatan qilingan haqoratning eng birinchisi va eng kattasi bu – gunohdir. Xudo: “Men sizning Yaratuvchingiz va Podshohingizman”, degan edi. Shunga qaramay, Odam Ato davridan boshlab biz o'z-o'zimizni xuddiki yaratuvchi va podshoh kabi tutib yashadik. Biz Uning qonunini buzdik va Uning ulug'vorligi payida bo'lish o'rniga o'z shon-shuhratimiz ortidan quvdik (Rimliklarga 3:23). Shuning uchun U bizni aybdor deb e'lon qildi va abadiy o'limni va'da qildi (Rimliklarga 6:23; Vahiy 20:11-15). Garchi bu ikkisi ham muhim muammolar bo'lsa-da, eng katta muammomiz LGBT siyosiy kuchi yoki irqchilik emas. Bizning Xudo oldidagi aybimiz va Uning g'azabiga duchor bo'lishimiz hozirgacha hal qilinishi kerak bo'lgan eng katta muammodir.

Muammoning o'zagi va natijasini farqlash

Shunday bo'lsa-da, Shogirdlar Jamoati Adolat Jamoati va Solih Millat Jamoati qarshi bo'lgan barcha shaxsiy gunohlar va tuzilmaviy adolatsizliklarni e'tiborsiz qoldirmaydi. Muqaddas Kitob Odam Atoning xotirjamlik bilan qilgan itoatsizligiga ham, Fir'avnning ommaviy yovuzligiga ham achinish bilan ishora qiladi. Unda zinokorlar, shuningdek, “adolatsiz farmonlar chiqarayotganlar” (Isha'yo 10:1; Ester 3:7-14), bilib va bilmasdan qilingan gunohlar (Levit 4-bobga qarang), shaxsiy va milliy qonunbuzarliklar (Isha'yo 13-19

qarang) haqida chuqur qayg‘u bilan fikr bildiriladi. U kambag‘allarga nisbatan shaxsiy yuzxotirchilikni qoralaydi (Yoqub 2:1-7) va irqchilikni ajratib turadigan tarkibiy tengsizliklarni tuzatishga harakat qiladi (Havoriylar 6:1).

Shunga qaramay, Shogirdlar Jamoati muammoning o‘zagi va natijasini, ularning sabab va alomatlarini farqlay oladi. Xudoga qarshi qilgan gunohimiz (birlikda “gunoh”) bizning asosiy muammomizdir. Boshqalarga nisbatan qilgan gunohlarimiz (ko‘plikda "gunohlar") shaxsiy yoki tizimli bo‘lishidan qat’i nazar asosiy muammoning natijasidir. Aslida, Shogirdlar Jamoati har qanday millatchilikdan tortib, homilani olib tashlash va bu dunyoning mafkuralarigacha bo‘lgan hamma narsani adolatsiz deb atash uchun eng kuchli asosga ega, chunki bu amaliyotlar va tuzilmalar batamom Xudoga qarshi turadi (Sanolar 50:6). Bir odam kaltaklanib, narsalari talon-taroj qilinganida, Samariyalik rahmdil odam *Xudo suratida* yaratilganligi uchun u odamga g‘amxo‘rlik qilishi kerak (Luqo 10:25-37 ga qarang). Biror birodar aka yoki opa yupin kiyingan bo‘lsa, yoki har kunlik yeyishga ovqati bo‘lmasa, masihiy kishi *Xudo suratida* yaratilgani uchun unga “sizga yaxshilik tilayman; issiq kiyinib, yaxshi ovqatlanib yuring,” demasligi kerak (Yoqub 2:16 ga qarang).



Xudoning qonuniga bo‘ysunmasligimizni va Uning ulug‘vorligini poymol qilishimizni hech narsa yopib ketolmaydi. Xudo buyuk, ardoqli, abadiy, qonun chiqaruvchi, barcha haqiqat va adolat U orqali o‘lchanadigan Zotdir.

Do‘zaxning mohiyati

Xudoga va Uning ulug‘vorligiga qarshi qilgan gunohimizning qanchalik og‘irligini va ahamiyatini tushunishning bir yo‘li – do‘zaxning qanchalar dahshatli ekanligi va abadiyligi haqida o‘ylab ko‘rishdir. Do‘zax tushunchasi juda qiyinligiga hech qanday shubha yo‘q. Bu haddan tashqari kishini ruhiy jihatdan mushkul vaziyatga soladi. Lekin men bir soniya unga e'tibor bilan qarab, xayolingizda uni bartaraf qilmasligingizni xohlayman. Agar do‘zax haqiqatan ham mavjud bo‘lsa, uni xayolimizda bartaraf etish orqali hech kimga yaxshilik qilolmaymiz.

O‘ylab ko‘rish kerak bo‘lgan savol shundaki, nima uchun Iso “o‘lmaydigan qurtlar” va “o‘chmas olov” haqida gapirganida, do‘zaxning o‘yga to‘ldiradigan tasvirlarini qayta-qayta taqdim etadi (masalan, Mark 9:48)? Iso juda ham jonli tilda misollar keltirgan.

Ushbu sabablar, bu tasvir majoziy bo‘lishidan qat’iy nazar do‘zaxning haqiqatan ham juda yomonligini, bu qo‘rqinchli tasvirlar gunohning qanchalik dahshatligini va shu bilan birga Xudoning qanchalik ulug‘vor ekanligini ochib beradi.³ Axir, g‘azab qadr-qimmatni ko‘rsatadi.

Masalan, men va opa-singillarim yoshligimizda ota-onamizga yolg‘on gapirish o‘yinchoq ustida tortishishdan ko‘ra qattiqroq jazoga olib kelishini angladik. Nega? Haqiqat o‘yinchoqlardan ko‘ra qimmatliroqdir. Haqiqat qanchalik qimmatli bo‘lsa, oqibatlari shunchalik dahshatli bo‘ladi. Har bir zargarlik do‘konning egasi sizga xuddi shu narsani aytadi.

Do‘zaxning abadiyligi va dahshatligi, boshqacha qilib aytganda, bizga gunohning qanchalik haqiqatan ham yomon ekanligini va shuning uchun Xudo qanchalik haqiqatan ham yaxshi va maqtovga loyiq ekanligini ko‘rsatadi. Gunoh bizning his-tuyg‘ularimizni xiralashtiradi, fikrlash qobiliyatimizni pasaytiradi va haqiqatni tushunish qobiliyatimizni suslashtiradi. Gunoh bizga biz koinotning markazi

3. Ushbu xatboshi va keyingi ikkitasi Ed Sexton (tahrir), *Jamoat vazifasining to‘rtta ko‘rinishi* (Grand Rapids: Zondervan, 2017) asarimning bir qismidan yangilangan va badiiylashtirilgan. [Ed Sexton (ed.), *Four Views of the Church’s Mission* (Grand Rapids: Zondervan, 2017)].

ekanligimizni hamda Xudo bizdan qarzdor ekanini aytadi. Muqaddas Kitobning do'zax haqidagi ta'riflari bizni o'tkinchi dunyoning yolg'onlariga ko'zimizni kattaroq ochishga va haqiqiy dunyoni fahmlashimizga yordam beradi. Hayot qadrliroq, oqibatlari yanada yuqoriroq, Xudoning ulug'vorligi siz tasavvur qilganingizdan ham ulug'roqdir.

Keling, 1-savolning javobini umumlashtiraylik. Insoniyatning eng katta muammosi nima? Kulol o'zi yasagan idishdan ko'ra qadrliroq bo'lgani kabi Xudoning cheksiz tabiati va ilohiy borlig'i butun olamdan qadrliroqdir va o'sha muqaddas, adolatli va ulug'vor Xudoga nisbatan qilgan gunohimiz bizning eng katta muammomizdir. Xudoga qarshi qilgan gunohimiz boshqalarga qarshi gunoh qilishimizga olib keladi. Shuning uchun jamoat asosiy muammoga ham, uning natijasiga ham e'tibor qaratishi va har doim har ikkalasiga to'g'ri baho berishiga ishonch hosil qilishi kerak.

IKKINCHI SAVOL:

ENG KATTA MUAMMOMIZNING YECHIMI NIMADA?

Birinchi beshinchi raqamgacha bo'lgan barcha jamoatlar Kalomda keltirilgan kechirim, yaxshi ishlar va Xudoning marhamati kabi jihatlarga to'xtalib o'tadi. Shunga qaramay, Kalomga asoslangan haqiqiy narsalarga ortiqcha ahamiyat berish yoki noto'g'ri maqsadga yo'naltirish mumkin. Biz yaxshi ishlarni xohlaymiz, lekin yaxshi ishlar qilish orqali mahalla yoki millatni qutqarishimiz noto'g'ri oqibatlarga olib kelishi mumkin. Bizni Xudo mustahkam sog'liq va

cheksiz boyluk bilan marhamatlashini xohlaymiz, lekin bu marhamatlarni dunyoning kafolatlangan va'dalari sifatida qabul qilsak, ularni yolg'on va'dalar va butlarga aylantirib qo'ygan bo'lamiz.

Agar biz Kalomiy haqiqatlarga to'g'ri yo'nalish va urg'u berishni istasak, Muqaddas Kitobni yaxlit syujet chizig'i sifatida o'qiyotganimizga ishonch hosil qilishimiz kerak. Asosiy mazmuni to'g'ri tushunish Muqaddas Kitob taklif etayotgan yechim haqidagi xabarning asl mohiyatini to'g'ri tushunishimizga yordam beradi. Yangiliklarni o'qiyotganingizda buni tabiiy qabul qilasiz. Bilasizmi, agar muxbir yangiliklarni noto'g'ri bayon qilsa, u holda yangilik sarlavhasi ham noto'g'ri bo'ladi.

Shuning uchun, Shogirdlar Jamoati Muqaddas Kitobning har bir qismini o'qish uchun qo'ldan kelgancha harakat qiladi. Mana bu yerda har bir qismni umumlashtirishning bir usuli bor:

Xudoni ko'rsatish uchun yaratilgan	Ibtido 1-2: Xudo odamlarni O'zining suratida yaratdi va ularga bu dunyoni abadiy to'ldirish va bo'ysundirish uchun berdi, agar biz buni Unga itoatkorlik bilan qilsak, Uning sevgisini, muqaddasligini va ulug'vorligini "ko'rsatamiz".
O'zimizni Xudoning o'rniga qo'yish	Ibtido 3-11: Xudodan va Uning marhamatidan, Uning hukmronligiga bo'ysunmaganligimiz tufayli mahrum bo'lganmiz va o'z shon-shuhratimizni ko'zlaganimiz uchun la'natlanib o'limga mahkumlanganmiz.

<p>Saboqlarni takrorlash: Xudoning qiyofasini aks ettirish, lekin ular bunday qilishmaydi</p>	<p>Ibtido 12–bobidan Isroil tarixigacha: Xudo butun dunyoga ming yillar davomida Ibtido 1-3 dagi saboqlarni o'rgatish uchun Isroil xalqidan foydalanadi. U ularga Odam Atoning asl vazifasini, ya'ni xalqlarni marhamatlash uchun Xudoning muqaddasligini, sevgisini va ulug'vorligini ko'rsatish topshirig'ini beradi. U hatto ularga yordam berish uchun o'z qonunini va huzurini beradi. Shunga qaramay, Isroil xalqi Odam Atoning xatosini takrorlaydi va shuning uchun Xudo ularni xuddi Odam Atodek quvib yuboradi.</p>
<p>Bu ishni Xudoning O'zi qilishi kerak</p>	<p>Payg'ambarlar: Payg'ambarlar Eski Ahdning ibratli saboqlarini taqdim etadilar: Xudoning O'zi yechimni berishi kerak. U kelishi, gunoh uchun tovon to'lashi va yuragimizni o'zgartirishi kerak. U bizlarni O'z suratiga muvofiqlashtirish va O'z qonuniga itoat etishga qodir qilishi kerak, shunda biz Uning muqaddasligi, mehri va ulug'vorligini namoyon qila olamiz hamda Uning barcha barakalarini qabul qilamiz.</p>
<p>Iso qutqaradi</p>	<p>Xushxabarlar: Iso Masih – Xudoning kelishi. U o'lib qayta tirildi va shu orqali bizning gunoh muammomiz hal bo'ldi va biz Uning xalqi bo'lishimiz uchun Xudo sifatida keldi. U Odam Ato va Isroil xalqi uddasidan chiqa olmagan vasifani bajarish uchun inson bo'lib keldi: Iso Masih Xudoning muqaddasligi va sevgisini ko'rsatdi hamda Xudoning barcha va'da qilingan barakalarini qabul qildi.</p>
<p>Ruh bizni Masih bilan birlashtiradi hamda bizni Xudoning oilasi va samoviy elchixonasiga to'playdi.</p>	<p>Havoriylerden Vahiygacha: Masih kabi bo'lishimiz uchun Masihning Ruhi bizni o'zi bilan birlashtirdi: bizning gunohlarimiz kechirildi, solih bo'ldik hamda bizga Xudoning muqaddasligi va sevgisini ko'rsatish vazifasi berildi. Shuningdek, U bizni Xudoning oilasi va osmon elchixonalari sifatida birlashtiradi. Biz birgalikda Masihning qayta kelish kunini va hamma narsani butunlay o'zgartirishini kutamiz.</p>

Bu – yaxlit syujet chizig'ining qisqacha mazmuni. Bularning barchasini qamrab oladigan yangiliklar sarlavhasi qanday bo'ladi? Yangiliklar sarlavhasi Muqaddas Kitobda "Xushxabar" deb ataladi, bu so'z shunchaki *yaxshi xabar* degan ma'noni anglatadi.

Xushxabar nima? O'sha yaxlit syujet chizig'ini yana bir bor mulohaza qilib ko'ring. Biz Xushxabarni tashkil etuvchi uchta muhim jihatni ajratib ko'rsatishimiz mumkin: maqomning o'zgarishi, yangi oila va kelajakda amalga oshadigan va'da.

Birinchi, Xushxabar, xuddi odam turmush qurganida yangi maqomga ega bo'lgani kabi, yangi ahd maqomini o'z ichiga oladi (qarang: Hosheya 2:16–23; 1–Petrus 2:10). Masih bilan birlashish, Uning hayotida, o'limida va tirilishida qilgan ishlari tufayli bizning kechirilganligimizni va solih deb e'lon qilinganligimizni anglatadi. “Zero Xudo gunohni bilmagan Masihni biz uchun gunoh qurbonligi qildi, toki biz Masihda Xudoning haqligi bo'laylik” (2–Korinfliklarga 5:21). Masih xochdagi o'limi orqali biz to'lashimiz kerak bo'lgan tovonni to'ladi, gunoh va o'limni mag'lub etganini ko'rsatib, o'likdan tirildi va Xudo Odam Atoga, Isroilga va Dovudga bergan barcha va'dalarni bajardi (shuningdek, Rimliklarga 5:8-9; Galatyaliklarga 4:1-7; 1–Korinfliklarga 15:1-5; 2–Korinfliklarga 2:3 ga qarang).

Ikkinchi, Xushxabar yangi ahd oilasini o'z ichiga oladi (Efesliklarga 2; 1–Petrus 2:10). Bizning yuqoridan tug'ilishimiz hamjihatlik, ya'ni korporativ bilan qilinadigan ishdir. Biz Samoviy

Otamizning farzandi bo'lishga loyiq bo'libgina qolmasdan ko'pgina birodarlar va opa-singillarga ham ega bo'ldik.

Uchinchidan, Xushxabar bizning muqaddasligimiz va mukammalligimiz hamda butun koinotning qayta tiklanishi haqidagi yangi ahd va'dasini o'z ichiga oladi (masalan, Rimliklarga 8:21, 30; 1-Yuhanno 3:2; Vahiy 21). Masih bizning tosh yuraklarimizni Xudoning qonuniga itoat qilishni xohlashimiz uchun tirik tana yuraklari bilan almashtirdi (Yermiyah 31:31-34; Ezekel 36:24-27). Bir kun kelib, biz Unga to'liq bo'ysunamiz, o'sha kunda osmon va yer qayta tiklanadi va hamma narsa o'nglanadi.

Bularning barchasi *yangilik*. Bu biz *qilishimiz kerak* bo'lgan narsaga emas, balki *Xudo qilgan va bajarishga va'da bergan* narsaga ishora qiladi. Biz gunohimiz muammosini hal qila olmaymiz. Biz yuragimizni, shaharni, madaniyatni yoki koinotni qayta yarata olmaymiz. Biz faqatgina bu ishlarni qiladigan Zotni ko'rsata olamiz: Ota Xudo, O'g'il va Muqaddas Ruh.

Masihiylar, shodlaninglar! Xudo sizning gunohlaringizni kechirdi va sizni solih deb e'lon qildi. U sizni yangi oilaga birlashtirdi. U koinotni butunlay qayta tiklaydi va va'dasiga muvofiq U sizni bir kun kelib butunlay mukammallashtiradi va hatto hozir ham U sizni o'z qiyofasiga moslashtiryapti.

O'zgarish sodir bo'ladi

Biroq, *Xudo bizga* Xushxabar yechimini taqdim etishda amalga oshiradigan ishga insonning o'ziga

xos javobi mavjud: *U bizni undagan amalni bajarishda bizga o'z vakolatini beradi.* Xudoning Xushxabaridan kelib chiqadigan narsa bizga Xudo tomonidan berilgan Xushxabarga bo'ysunishimiz bo'ladi. Biz Iso Masihning bizning gunohlarimizni yuvganligi va bizning o'rnimizga qurbon bo'lib bizni oqlaganligi kabi o'ziga xos ishini takrorlay olmaymiz. Lekin bundan tashqari, U bizni qilgan ishini qilishga chaqiradi. "Otam Meni yuborganidek, Men ham sizlarni yuboryapman" – deydi Iso (Yuhanno 20:21).


Yuqoridagi syujet chizig'ida ko'rganlarimizni eslang. Avval boshidanoq maqsad Odam Ato va Momo Havo yer yuzini to'ldirishlari va bo'ysundirishlari va buni Xudoning muqaddasligi, sevgisi va ulug'vorligini tasvirlaydigan yoki namoyon etadigan tarzda qilish edi. Shuning uchun, "Iso buning uddasidan chiqdi" deyishning o'zi yetarli emas. Biz yana shunday ham deyishimiz kerak: "Endi biz ham shunday qilamiz." Bunday deyish bizni qutqarmaydi yoki oqlamaydi, lekin bu Xudo tomonidan qutqarilgan va oqlangan odamlarning qiladigan ishi.

Shunisi e'tiborga loyiqki, Masih ushbu maqsadlar uchun bizga O'z Ruhini beradi. Xudoning Ruhi insonning qayta tug'ilishiga sabab bo'lganda, o'zgarish sodir bo'ladi. Har doim. Yangi tug'ilgan chaqaloq nafas olish, yig'lash, ovqatlanish va o'z tabiatiga xos ravishda harakat qilishdan boshqa hech narsa qilolmaydi. Xuddi shunday, yangi tug'ilgan masihiy, ya'ni Xudoning Ruhidan qayta yaratilgan kishi, Xudoni, Xudoning qonunini va Xudoning xalqini sevmaslikdan boshqa hech narsa qilolmaydi.

Ehtimol, bular sizga masihiy bo'lgan onlaringizni eslatar. Masihiy bo'lishdan oldin, ba'zi gunohlarga qo'l urishni xohlagan bo'lishingiz mumkin. Masihni taniganingizdan keyin esa bunday qilmadingiz. Ehtimol siz spirtli ichimlik ichib mast bo'lishni xush ko'rgandirsiz. Lekin unday qilmadingiz. Ehtimol, siz odamlardan foydalanishni yoqtirgandirsiz. Lekin unday qilmadingiz. Balki siz masihiylardan nafratlangandirsiz. Lekin keyin ularga bo'lgan munosabatingiz o'zgarganini sezdingiz. Balki sizni Xudoning kitobi qiziqtirmagandir. Keyinroq esa siz Uning kitobiga maftun bo'lib qolganingizni sezdingiz. Men barcha gunohlarga bo'lgan xohish yo'qolganini aytmoqchi emasman, lekin o'zgarish boshlanganini ta'kidlayapman. Siz o'zgarishni seza boshladingiz.

Yuqoridan tug'ilganlar solihlikni yaxshi ko'radilar. Oqlanganlar adolatga intiladilar. Gunohlari kechirilganlar shaxsiy va ommaviy gunoh bilan kurashadilar. Masihning samoviy tanasining a'zolari dunyoviylar bilan bog'lanadi, u yerda biz birgalikda o'zimizni Xudo bergan, yangi ijod, yuqoridan tug'ilgan, yerdagi jannat haqiqatlari bilan "burkanamiz" (Kolosaliklarga 3:1-17).

Biz ikki qismli yechimni blok-diagramma ko'rinishida tasvirlashimiz mumkin: Xudoning Xushxabar ishi Xushxabar xalqining Xushxabarga itoatkorligini yaratadi va bizning Xushxabar xalqi sifatidagi Xushxabarga itoatkorligimiz esa o'z navbatida Xudoning Xushxabar ishini quyidagicha ko'rsatadi, namoyish etadi va isbotlaydi:



Biz bularning hech birini mukammal darajada bajarmaymiz. U darajaga yaqin ham borolmaymiz. Biz emaklashni, keyin yurishni va asta-sekin yugurishni o'rganadigan yangi tug'ilgan chaqaloqlarga o'xshaymiz. Qolaversa, bizning eski tabiatimiz vaqtincha yangi tabiatimiz bilan aralash holda qoladi (Rimliklarga 7). Ammo Xudoning sevgisi bizda asta-sekin kamol topadi. Havoriy Yuhanno shunday yozadi: "Agar biz Uning amrlariga rioya qilsak, shundan Uni tanib-bilganimizni bilamiz. Kimki: "Men Uni tanib- bildim", – desa-yu, lekin Uning amrlariga rioya qilmasa, u odam yolg'onchi va unda haqiqat yo'qdir. Kimki Uning So'ziga rioya qilsa, u odamda Xudoning sevgisi haqiqatan kamolga yetgan bo'ladi. Ana shundan biz Unda jo ekanimizni bilamiz" (1–Yuhanno 2:3-5).

Bir do'stim masihiy bo'lgach, qanday o'zgarganini eslayman. Masihga kelishidan oldin u dangasalik, xudbinlik va ko'ngilxushlikka o'chligi bilan ajralib turardi. Masihiy bo'lganidan so'ng, u boshqa odamga aylandi, ya'ni boshqalarga nisbatan mehr bilan

g'amxo'rlik qiladigan va o'zini tuta olishi bilan ajralib turardi. U har kuni Muqaddas Kitobni o'rganishni boshladi va jamoatga borgan sari ko'proq boradigan bo'ldi. Bir necha yil o'tgach, u hatto jamoatda oqsoqol bo'ldi. Bugun uni tanigan har bir kishi uni juda ham rahmdil, mehnatsevar va muqaddas kishi sifatida ta'riflaydi.

Masihilar "Bizda yaxshi xohish-istaklar o'z-o'zidan paydo bo'ladi" deb aytolmaydilar. Masihga ishongan odamda ezgu fazilatlar ba'zan tez, ba'zan esa sekin shakllanadi. Xudoning Ruhi bizda ezgu fazilatlar shakllanishiga yordam beradi, ayniqsa, biz o'zimizni Xudoning So'zi va Uning xalqiga ochganimizda fe'l-atvorimiz tezroq o'zgaradi.

Biz jannatni yerga olib kelolmaymiz

Ya'ni, Ruh hech bo'lmaganda Masihning birinchi va ikkinchi kelishi o'rtasida uning ishini cheklaydi. U qalblarimizni, ongimizni, xohish-istaklarimizni va sevgimizni qayta tiklaydi. Lekin u bizning qo'llarimizni ham, qilgan ishimizni ham qayta tiklamaydi. Jismlar baribir o'ladi. Uylar baribir qulab tushadi. Poydevorlar ham baribir cho'kadi. Yaxshi hukumatlar yomonlashadi. Go'zal qo'shiqlar unutiladi. Hatto eng zo'r va'zgo'ylar ham noto'g'ri so'zlarni aytishlari mumkin. Bir so'z bilan aytganda, la'nat to'liq kuchida qoladi va Masih qaytguniga qadar shunday bo'ladi. Masih dunyoning har bir qarich yerida hukmronlik qilishi mumkin, ammo la'nat ham shunday. Voiz kitobini o'qing. "Quyosh ostidagi" hamma narsa hali ham behuda va "ma'nosiz", deydi

ilhomlangan muallif (1:1-7). Donolar xuddi nodonlar kabi olamdan o'tishadi (Voiz 2:16). Adolat bo'lishi kerak bo'lgan joyda nohaqliklar kelib chiqadi (3:16). Halol kunlik mehnat sizni o'ldiradi (10:8-9).

Shu sababli, siz jamoatning vazifasi "madaniyatni xalos etish" yoki "shaharni o'zgartirish" deb aytadigan har bir kishidan ehtiyot bo'lishingiz kerak. Ha, har birimiz, masihiy sifatida, o'zimizning kichik bog'imizni u bizga tegishli bo'lishidan avvalgi holatidan yaxshiroq holatda qoldirish ustida ishlashimiz kerak. Biz o'zimizga ta'sir ko'rsatishga harakat qilamiz. Yaxshilik qilishga intilamiz. Darhaqiqat, biz yaxshilik qilishga buyurilganmiz (Galatyaliklarga 6:1). Lekin biz buni yangi tabiatimizga ko'ra ishonch uchun qilamiz. Biz buni har qanday narsaning "xatosini to'g'rilash" yoki "o'zgartirish" uchun qilmaymiz. Bunday til kimning ishi kimniki ekanligini tushunishga xalaqit beradi. Biz emas, balki Muqaddas Ruh qutqarish va o'zgartirishga qodir va Osmon Shohligi Xudoning hayot baxsh etuvchi Ruhi bilan chegaralanadi.

Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, siyosatimiz, ijtimoiy ishimiz, qurilish loyihalarimiz yoki biron bir xayrli ishimiz orqali yer yuziga jannatni keltira olmaymiz.

Shunday bo'lishiga qaramasdan . . . Xudo qila oladi.

Lekin Xudo bunga qodir

Xushxabar madaniyatni xalos etadi va shaharni o'zgartiradi. Bu sizning haydovchilik guvohnomangizda ko'rsatilgan shahar emas. Bu Xudoning samoviy

shahri. Sizning mahalliy jamoatingiz uning postiga yoki elchixonasiga aylanadi. Biz ayni damda jannatni yerga olib kela olmaymiz. Ammo Xudo bunga qodir.

Ba'zida Xudo biz bilan birga o'z uyini yaratadi. Jannat yerga keladi. Shunday qilib, Xudo Odam Ato va Momo Havo bilan bog'da yurdi, ya'ni u yerda jannat va yer bir-biri bilan tutashdi. U Isroil bilan birga ma'badda yashadi, ya'ni u yerda ham jannat va yer bir-biri bilan tutashdi (Chiqish 34; Ibroniylarga 9:23 ga qarang).

Eng muhim va ajoyib narsa shundaki, Xudo Iso Masih orqali yer yuzida yashagan. Isoning O'zi yer yuzidagi Osmon Shohligi edi (Matto 4:17 ga qarang).

Shunga qaramay, hozir ham yer va jannat tutashadigan yana bir joy bor va u mahalliy jamoatdir. Jannat bizning yig'ilishlarimizda eng ko'p namoyon bo'ladi (Ibroniylarga 12:22 ga qarang). U yerda biz "osmonda" taqiqlangan va ijozat berilgan narsalarni "yer yuzida" ham taqiqlaymiz va ijozat beramiz (Matto 18:18). U yerda jannatda va yerda barcha hokimiyatga ega bo'lgan kishi yashaydi (Matto 18:20; 28:18). Shuning uchun Pavlus jamoatni Muqaddas Ruhning ma'badi deb ataydi (1-Korinfliklarga 3:17; 2-Korinfliklarga 6:16).

Boshqacha qilib aytganda, jamoatning asosiy vazifasi dunyoga jannatning qanday ekanligini ko'rsatishdir. Biz elchixonalar kabi jannatning yerdagi vakillari bo'lamiz. Siz va biz jamoatda yig'ilganimizda, dunyo samoviy madaniyatning ilk mevalarini, uning shahri va hatto tilini ko'rishi kerak. U yerda biz kamtarin va rahm-shafqatli, pokdil, tinchlikda va haqlik uchun tashna bo'lib yashashni

o'rganamiz (Matto 5:3-10). U yerda biz muhabbat, sevinch, xotirjamlik, sabr-toqat, mehribonlik, ezgulik, ishonch, muloyimlik va o'zini tuta bilish bilan gapirishni mashq qilamiz (Galatyaliklarga 5:22-23). U yerda biz yuragimizdagi jannatning kuchini va Ruhini ko'rsatamiz (1-Korinfliklarga 12:4-10). U yerga masihiy bo'lmagan kishi kirib: "Haqiqatan Xudo sizlar bilan ekan!" deyishi kerak (1-Korinfliklarga 14:25 ga qarang).

Sizning mahalliy jamoatingiz Osmon Shohligining posti yoki elchixonasidir. Siz esa uning elchisisiz (1-Korinfliklarga 10:31; 2-Korinfliklarga 5:20 ga qarang). Xushxabar va jamoatning o'sishi o'rtasidagi bog'liqlikni anglay olmagan Izlovchi Jamoati haqida aytganlarimni eslaysizmi? Xudo O'z xalqini barcha xalqlar oldida Egamizning ulug'vorligini namoyon etish uchun tanladi. Shuning uchun jamoatlar a'zolikka nisbatan jiddiy munosabatda bo'lishlari kerak. Ular xuddi Xudoning Eski Ahddagi xalqi orasida halol va harom yoki muqaddas va muqaddas bo'lmaganlar o'rtasidagi chegara kabi, jamoat va dunyo o'rtasidagi chegarani aniq va ravshan qilishlari kerak. Buning uchun suvga cho'mishga va Qutlug' kechlikka qat'iy rioya qilishimiz darkor.

Insoniyatning eng katta muammosiga Xushxabar qanday yechim topib beradi? Biz hozirgacha muhokama qilgan barcha narsalarni umumlashtirishning bir usuli bu javob Xudo ekanligini aytishdir. Xudo yechimdir. Muammoni hal qilish uchun do'zaxdan qochishning o'zi yetarli emas. Nigohingizni do'zaxdan jannatga yo'naltiring

va Xudoga ko‘z tiking! Xudo dahshatli va abadiy do‘zaxdan ko‘ra ajoyibroq va buyukroqdir. U qudratli, cheksiz, hamma yerda bor bo‘lgan, mukammal va yaxshidir. U O‘z-o‘ziga mustaqil va butun borliqning Yaratuvchisidir, hatto vaqt va makon hamdir. U muqaddasdir. U sevgidir. U eng katta ezgulik, eng katta quvonch, butun sevgi manbai va qalbimizning yagona haqiqiy mazmunidir. Avgustinning mashhur fikriga ko‘ra, "Bizning yuraklarimiz Sen bilan yashamagunicha tinchlik topmaydi."⁴

Shuning uchun, jamoat qila oladigan eng muhim narsa va yagona faoliyat – odamlarning qalblari va onglarini Xudoga yo‘naltirishdir. Biz buni so‘zimiz va amallarimiz bilan amalga oshiramiz.

Shunga qaramay, Xudoga ishora qilish, shuningdek, Xudoning xalqiga, Xudo xalqining jamoatlariga va Uning xalqi orasida itoatkorlikka chaqirishni anglatadi. Mahalliy yig‘ilishlarimizda biz yangi jamiyat, yangi madaniyat, muqaddas xalq, hattoki yer yuzidagi jannatni barpo qilishga intilamiz. Biz xalqlarga Xudo bilan birga yashash qanday ekanligini ko‘rsatamiz.

UCHINCHI SAVOL: JAMOATNING VAZIFASI NIMA?

Biz boshlagan joyimizga qaytib keldik. Birinchi va ikkinchi savollarga berilgan javoblar jamoatning vazifasi haqida nimani nazarda tutadi?

Agar insoniyatning muammosi ikki qismga bo‘linsa (muammoning o‘zagi va natijasi), uning yechimi ham

4. Avgustin, *E'tiroflar*, tarjimasi. R. S. Payn-Koffin (Nyu-York: Pingvin, 1961), 21–bet. [Augustine, *Confessions*, trans. R.S. Pine-Coffin (New York: Penguin, 1961), 21].

(Xudoning Xushxabari va unga itoat etish), vazifasi ham shunday: barcha jamoatlar *shogird orttirishni* birinchi o'ringa qo'yishlari kerak; bundan tashqari, har bir a'zo *shogird bo'lishga* e'tibor qaratishi kerak (bu shogird tayyorlashni ham o'z ichiga oladi).

Birinchi ustuvor vazifa: Boring va shogird orttiringlar . . . Isoning osmonga ko'tarilishidan oldin shogirdlariga aytgan so'nggi so'zlari: "Shunday ekan, boringlar va barcha xalqlardan shogird orttiringlar" (Matto 28:19).

Shogird orttirish nimalarni taqozo etadi? Avvalo, biz "borishimiz" (otlanishimiz) kerak. Har bir jamoat va jamoat a'zosi Xushxabar siyosiy va etnik chegaralar bo'ylab – "barcha xalqlarga" tarqalishidan manfaatdor bo'lishi kerak – yo borib, yoki ketayotganlarni qo'llab-quvvatlash kerak.

Kengroq qilib aytganda, shogird orttirish Xushxabar va imonga keltirish haqida o'ylashni anglatadi. Bu esa hamma narsaning boshlanish nuqtasidir. Izlovchilar jamoati buni to'g'ri qabul qiladi. Imonga keltirish muammolarning o'ziga murojaat qiladi va bizni muammolarning natijasiga murojaat qilishimizga yo'l ko'rsatadi. Imonga kelish paytida insonlarning qalblari o'zgaradi. Ularning ishonchi, e'tiqodi va ibodatleri o'zgacha bo'ladi. Hatto ularning xayrli ishlarining maqsadi ham o'zgaradi va buni o'zlarini maqtash uchun emas, balki Xudoni ulug'lash uchun qilishadi.

Imonga kelishdan boshqa hamma narsa behudadir. Siz ifloslanish va global isishni hal qilishingiz, homilani oldirib tashlashni to'xtatishingiz, barcha

irqiy tengsizliklarni to'xtatishingiz, global ochlikka barham berishingiz, zo'ravonlik va odam savdosining har bir qurboniga boshpana berishingiz, tinchlik shartnomalarini muzokara qilishingiz va haqiqatan ham butun dunyoni qo'lga kiritishingiz mumkin. Hamma narsada tenglik bo'lsa-da, to'q qorin och qorindan yaxshiroqdir (lekin Hosheya 13:6 ga qarang). Shunga qaramay, Iso shunday deb javob bergan bo'lardi: "Zero agar odam butun dunyoni qo'lga kiritisa-yu, ammo o'zining jonini yo'qotsa, unga nima foyda?" (Matto 16:26).

Shayton Isoga shunday kelishuvni taklif qilgan edi. U Isoni "baland tog'ga olib chiqib, Unga dunyoning barcha shohliklari va ularning shuhratini ko'rsatib, Unga: -Agar tiz cho'kib, menga sajda qilsang, bularning hammasini Senga beraman, - dedi" (Matto 4:8-9). Iso o'sha paytda va o'sha joyda hamma narsaga ega bo'lishi mumkin edi va dunyodagi barcha shohliklarga hukmronlik qilishi mumkin edi. U o'z davrining yoki bugungi kunning bahsli siyosiy masalalari bo'yicha xohlagan qonunlarini qabul qilishi mumkin edi. U homilani oldirib tashlashni taqiqlab qo'yishi, har bir jinoiy adliya tizimini sezilarli darajada yaxshilashi va butun dunyo bo'ylab birorta ham bola ortda qolmaydigan maktablar tashkil qilishi mumkin edi. Agar asosiy qonun-qoidalarning muhimligi zaiflashgan bo'lsa, qanday qilib bu tuzilmaviy o'zgarishlar to'g'ri, sof va mustahkam bo'lishi mumkin edi?

Bu yerda gap ruhni tanadan ustun qo'yishda emas. Bu - abadiylikni vaqtinchalik narsalardan ustun qo'yish va jon hamda tanni do'zaxda halok

etishga qodir Zotga sajda qilishdir (Matto 10:28). Biz ikkilamchi narsalarga ularni uncha muhim emas deb hisoblaganimizda ular haqida o‘rinli ravishda o‘ylay boshlaymiz. Odamlar Xushxabarni va imonga keltirishni birinchi o‘ringa qo‘yadigan masihiylarni “o‘y fikrlari shu darajada samoviy ishlar bilan band bo‘lganki, hatto ular yer yuziga foyda keltirmaydigan kishilar” deb tanqid qilishlari mumkin. Lekin, aslida, samoviy fikrli kishi yerda juda ko‘p yaxshi ishlar qiladi. U o‘z xazinasini samoda saqlanganligini bilgani uchun yerdagi xazinasini boshqalarga manfaat keltirish uchun bemalol qurbon qilishi mumkin. Yoki Jon Payper tushuntirganidek, “Masihiylar barcha azob-uqubatlar, ayniqsa abadiy azoblar haqida o‘ylashadi.”⁵

... *Suvga cho‘mdirish va ta’lim berish orqali* . . .

Shunga qaramay, imonga keltirish, ya'ni yuqoridan tug‘ilish bir martalik hodisadan ko‘proq narsani – o‘limdan hayotga o‘tishni o‘z ichiga oladi. Isoning bizga shogird orttirish haqida aytgan amrining qolgan qismiga quloq tuting: “Shunday ekan, boringlar va barcha xalqlardan shogird orttiringlar. Ularni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruh nomi bilan suvga cho‘mdirib, Men sizlarga buyurgan barcha narsalarga rioya qilishni o‘rgatinglar” (Matto 28:19-20).

Biz suvga cho‘mdirish va ta’lim berish *orqali* shogirdlar orttiramiz. Ayniqsa, jamoatlar odamlarni Ota, O‘g‘il va Muqaddas Ruhning "nomi bilan" suvga cho‘mdiradilar.

5. Jon Payper bu iborani ko‘plab va'zlarida va maqolalarida qo‘llagan. Siz uni DesiringGod.org saytida mavjud bo‘lgan barcha manbalarda topishingiz mumkin.

Suvga cho‘mish odamlarga Isoning "ism yorlig‘i"ni yoki "jamoat formasi"ni beradi. Bu odamlarni Masih va Masihning xalqi bilan birlashtiradi. Jamoatlar, hech bo‘lmaganda, qisman suvga cho‘mdiradilar, shunda masihiylar boshqa imonlilar bilan Masihning "nomi uchun yig‘il"ishni boshlaydilar (Matto 18:20). Shunday qilib, jamoatlar odatdagiday jamoat a'ziligiga yangi kelganlarni suvga cho‘mdiradilar (Havoriylar 2:41 ga qarang). Missionerlar jamoatlar mavjud bo‘lmagan joylarga borganlarida bu holatga istisnolar bo‘lishi mumkin (Havoriylar 8:38 ga qarang). Shunga qaramay, suvga cho‘mish shunchaki marosim emas: shu orqali jamoat bu insonning imonda o‘ishi uchun mas'uliyatni oladi, go‘yo jamoat: "U inson Rabbimizga va bizning jamoatimizga tegishli" deb e‘lon qiladi, yangi imonli esa: "Men Rabbimga va shu jamoatga tegishliman", deydi.

Agar suvga cho‘mish jamoat a'ziligiga kirish eshigi bo‘lsa, Rabbiyning kechki ziyofati doimiy oilaviy taomdir. Kechki ovqat shaxsiy masala emas. Bu esa yerda Masihning tanasi kimligini ochib beradi va ko‘rsatadi (1–Korinfliklarga 10:17).


Yuqorida mahalliy jamoatlar Osmon Shohligining elchixonalari ekanligi haqidagi gaplarimni eslang. Elchixona misoli shunisi foydaliki, u bir vaqtning o‘zida ikki narsani ko‘rsatadi: birinchidan, jamoat boshqa Shohlikni ifodalaydi; ikkinchidan, u alohida imonlilar ega bo‘lmagan rasmiy hokimiyatga ega – bu "Shohlik kalitlari" (Matto 18:18-20; qiyoslang: 16:19). Bu kalitlar jamoatlarga kim Osmon Shohligiga tegishli va kim tegishli emasligini aytishga imkon beradi, buni ular suvga cho‘mish va Qutlug‘ kechlik orqali (yoki jamoat

intizomi qo'llanilganda Qutlug' kechlikka qo'yilmaslik orqali) qilishadi. Siz dunyoning boshqa burchagidagi mamlakatingizning elchixonasi haqida o'ylashingiz mumkin. Agar siz dunyoning o'sha burchagida yashayotgan bo'lsangiz, elchixona sizga fuqarolik taqdim etish huquqiga ega emas, lekin u pasportingizni yangilash orqali siz fuqaro ekanligingizni isbotlab bera oladi. Xuddi shunday jamoatga qo'shilish ham boshqa masihiylar tomonidan rasman masihiy deb qabul qilinish va Osmon Shohligining elchisi sifatida tan olinishdir..

Yangi shogird jamoat tomonidan qabul qilinishi bilanoq, shogird o'zini ish o'rganishga bag'ishlaydi. Biz bu shohlikning fuqarosi va elchisi bo'lishni o'rganishimiz kerak. Shu yo'sinda, jamoat o'z a'zolariga Iso buyurgan hamma narsaga amal qilishni o'rgatadi. Jamoatlar va'z qilish, hamdu sano aytish, ibodat qilish va Muqaddas Kitobni o'qish orqali ta'lim beradi. Oqsoqollar esa so'zlari va xatti-harakati bilan ta'lim beradilar (Havoriylar 20:26-30; 1-Timotiy 4:16; Ibroniylarga 13:7, 17). Shu bilan birga, har bir a'zo Masih kabi bo'lishni bir-biriga sevgi bilan haqiqatni gapirish orqali o'rgatadi, shundagina jamoat imonda mustahkamlanadi (1-Korinfliklarga 11:1; Efesliklarga 4:15-16, 29; shuningdek 1-Fessalonikaliklarga 1:6-7; 2-Fessalonikaliklarga 3:7; Ibroniylarga 13:7 ga qarang). Adolat Jamoati va Solih Millat Jamoati o'zgargan hayot haqida o'rgatish muhimligiga alohida urg'u beradi.

Bularning barchasini tushunish uchun kerakli bo'lgan narsa shundaki, solihlik va sevgida birga o'sib borayotgan masihiylar jamoati o'z navbatida Xushxabarning maqsadlariga xizmat qiladi, bunga esa Izlovchilar

Jamoati mas'uldir. Iso va'da qilganidek, jamoat ichida bir-birimizni kechirishni va U bizni sevgandek sevishni o'rgansak, shunda dunyo Uning kimligini bilib oladi (Yuhanno 13:34-35). Boshqa bir joyda esa U bizning yaxshi ishlarimiz boshqalarni Xudoni ulug'lashga yetaklashini aytadi (Matto 5:16; shuningdek, 1-Petrus 2:12). Muxtasar qilib aytganda, Xushxabarni bo'lishish orqali tanlangan va muqaddas bir xalq paydo bo'ladi, bu tanlangan va muqaddas xalq Xushxabarni bo'lishish maqsadiga xizmat qilib, ajoyib guvohlik beradi.



Boshqacha aytganda, mahalliy jamoatlar Buyuk Topshiriqning vositasi va maqsadi hisoblanadi. Ular shogird yetishtirishadi.

Ikkinchi ustuvor vazifa:

Iso amr qilgan hamma narsaga rioya qilib, shogird bo'lish
 Shunga qaramay, jamoatning vazifasi haqidagi muhokamamiz hozircha to'xtagani yo'q. Axir, Masih bizni nafaqat shogird orttirishga, balki "sizlarga buyurgan barcha narsalarga rioya qilishni o'rgatinglar" deb chaqiradi (Matto 28:20).

O'zimni misol qilib oladigan bo'lsam, Iso menga jamoat a'zosi va jamoat oqsoqoli sifatida, shuningdek, qizlarimga ota, xotiningga umr yo'ldosh, ota-onamga farzand, fuqaro, yozuvchi, seminariya professori, qo'shni, do'st, avtomobil haydovchisi, uy egasi, oziq-ovqat xaridori, restoran mijoz, kommunal xizmatlar mijoz sifatida U amr qilgan hamma narsaga rioya qilishimni nazarda tutadi.

Keling, restoran mijoz misolini ko'rib chiqamiz. Butun jamoat men bilan restoranga bormaydi. Butun jamoatning ishi menga xizmat ko'rsatgan ofitsiantga choychaqa berishi kerak degani emas. Esingizda bo'lsin, butun jamoatning vazifasi suvga cho'mish va Qutlug' kechlik orqali Isoni mening yordamimda tushunish edi. Bu esa menga Isoning Elchisi nomini beradi. Shunga bo'lsa-da, restoranda o'tirib, ofitsiantga qancha choychaqa berish haqida bir to'xtamga kelishga harakat qilyapman. Choychaqa berish haqidagi mening shaxsiy qarorim Isoni yaxshi yoki yomon tarafdin ko'rsatishi mumkin. Jamoatim meni Isoning elchisi deb rasman e'lon qilgani uchun bu narsalar hayotimning boshqa jabhalarida ham shunday bo'ladi.

E'tibor bering, biz ikki xil ish haqida, butun jamoatning elchixonasi ishi va har bir a'zoning elchilik ishi haqida suhbatlashishimiz kerak. Shuning uchun biz jamoatning vazifasi haqida ikki xil nuqtai nazardan, ya'ni butun jamoat vazifasi va alohida a'zoning vazifasi haqida suhbatlashishimiz kerak. Elchixonasi va elchining vazifasi bir-biriga yuqori darajada va o'zaro bog'liqdir, lekin ular huquq maktabi va advokat kabi bir-biridan tubdan farq qiladi.

Ba'zan odamlar jamoatning vazifasi haqida kelishmovchiliklarga duch kelishadi, chunki ular insoniyatning eng katta muammosi va uning yechimi to'g'risidagi 1 va 2-savollarga turlicha javob berishadi. Masalan, dindor masihiylik ko'pincha bizning eng katta muammomizni "bilimsizlik" va uning yechimini esa "tarbiya" deb hisoblaydi. Bu ikki javobni birlashtiring va siz jamoatning vazifasi tarbiya berish degan xulosaga kelasiz. Bir xil Xushxabar ta'limotiga ega bo'lgan odamlar o'rtasida kelishmovchiliklar "jamoat" so'zini boshqacha ishlatishga olib kelishi mumkin. Ba'zan odamlar jamoatning vazifasi haqida so'z yuritishganida, tartibga solingan yoki uyushgan mahalliy jamoatni nazarda tutishadi. Bunga a'zolik va intizomga oid qarorlar, jamoatning xarajatlar rejasi, cho'ponlarning ish tavsiflari, jamoatning ish yig'ilishlarida muhokama qilinadigan masalalar, va albatta, jamoatning haftalik ibodat yig'ilishlarida qilinishi kerak bo'lgan ishlar kiradi. Ba'zan jamoat a'zolari haftalik ishlari bilan band bo'lishganida har kunlik jamoat va tarqoq jamoat haqida o'ylashadi.

Shuning uchun, kimdir siz bilan jamoatning vazifasi haqida gapira boshlasa, avval shuni aniqlab olish kerak: u Xudo butun jamoatdan *birgalikda* nima qilishni talab qilayotgani haqida gapirayaptimi, yoki Xudo har bir imonlidan *shaxsan* nima kutishini nazarda tutayaptimi? Bu yerda muammoning bir qismi shundaki, ko'p masihiylarga o'zlarining imonlari haqida umumiy yoki oilaviy nuqtai nazardan o'ylash o'rgatilmagan. Hatto jamoat haqida gapirilganda ham ular "biz" emas, "men" deb fikr yuritishadi.

Yuqorida aytib o'tganimdek, *bizning* vazifamiz mahalliy jamoat sifatida birgalikda *shogird orttirishdir*, *sizning* vazifangiz esa jamoat a'zosi sifatida *shogird bo'lishdir*.

Bizning vazifamiz: Agar men butun jamoatim oldida turib, ularning hamjihatlik bilan qiladigan ishlariga murojaat qilsam, shunday deyman: "Bizning jamoat sifatidagi vazifamiz – *shogirdlar orttirishdir*. Biz yig'ilishlarimizni tashkil etishimiz, cho'ponlarni tayinlashimiz, qo'shimcha dasturlarni o'ylab chiqishimiz, sarf-xarajatlar rejasini ishlatishimiz va har bir jamoat xizmatidan so'ng shogird orttirish ishiga a'zolarimizni yuborishimiz kerak. Tartibga solingan va uyushgan mahalliy jamoat elchixonaga o'xshaydi. Bizning vazifamiz Osmon Shohligi nomidan "Bu Xushxabar" va "Bu odamlar Xushxabar fuqarolari" deb rasmiy bayonotlar berishdir."

Sizning vazifangiz: Ammo keyin men ularga alohida shaxslar sifatida nasihat qilaman va ularning haftalik majburiyatiga nimalar kirishini tushuntiraman: "Jamoatning vakili va o'zingiz uchun javobgar shaxs sifatida sizning vazifangiz *shogird bo'lishdir*." Bu nima degani? Hayotingiz uchun o'zingiz javobgarsiz, oilangizni seving, ishga boring, yaxshi qo'shni bo'ling, jamoatga boring, shogird orttirish maqsadida va shu bilan birga har bir qilayotgan ishingiz orqali jannatning qanday ekanligini dunyoga ko'rsatish uchun atrofingizdagi dunyoga g'amxo'rlik qiling.


	Bizning vazifamiz birgalikda harakat qilish	Sizning vazifangiz hamma joyda
Xulosa	Shogird orttiring	Shogird bo'ling
Injil matni	"Ularni... suvga cho'mdirib... o'rgatinglar..."	"... barcha narsalarga rioya qilishni o'rgatinglar" (Matto 28:19-20)
Tasvirlash	Elchixonona	Elchi

IKKALA ROL HAM JUDA MUHIM

Bizga aynan jamoatning vazifasini bajaradigan jamoatlar va jamoat a'zolarining majburiyatlarini ado etadigan a'zolar kerak, shu bilan birga, har bir masihiy turli vaqtlarda ikkala rolni o'zida mujassam etadi.

Jamoatingiz jamoaviy (kongregatsiya), presviterian yoki yepiskop boshqaruv tuzilmasiga ega bo'lishiga qarab, shaxsan siz jamoatingizda har xil rasmiy vakolatlarga yoki "o'z fikringizni aytish huquqiga" ega bo'lasiz. Va albatta, va'zxon eng yuqori huquqqa ega bo'ladi. Lekin siz ham jamoat a'zosi sifatida u yerda bo'lish, ehson qilish va jamoatdagi har qanday ishlarni o'z zimmangizga olish orqali ushbu xizmatda ishtirok etasiz. Barchangiz bir yo'nalishda harakat qilayotganingiz uchun "butun tana bir-biriga bog'langan bo'g'inlar orqali o'zaro ulanib va birikib, sevgi bilan o'zini barpo qilishi uchun o'z me'yorida har bir a'zoning g'ayratli harakati bo'yicha tanani o'stiradi" (Efesliklarga 4:16).

Shogird orttirish faoliyatini birinchi o'ringa qo'yish, o'z o'rnida, butun umringiz davomida shogird sifatida yashashga va shogird orttirishni doimo yodda tutishga undaydi.



Yakuniy misol: to'rt farzandim kichik bo'lgan paytlarni eslayman. Sizni ishontirib aytamanki, kun bo'yi uyda bolalarim bilan birga bo'lgan ayolim qo'lidan kelganicha harakat qilgan bo'lsa-da, qo'shnilarimizga Xushxabar aytishni o'z kundalik rejasida birinchi o'ringa qo'ymagan. U bolalarning qornini to'qlab, ularning xavfsizligini ta'minlab, o'z aql-idrokini saqlagan holda shunchaki kunni o'tkazishni birinchi o'ringa qo'ydi. Ammo kengroq miqyosda aytadigan bo'lsam, u bizning to'rt qizimiz Masihni tanib-bilishini va o'zining onalik vazifasi orqali qo'shnilarimizga Masih haqida guvohlik berishni xohlaydi. Axir, ikkalamiz ham shu maqsadda ota-onalik qilamiz. Albatta, biz qizlarimizning sog'lig'iga va farovonligiga katta e'tibor berib, ularni parvarishlab sevamiz. Lekin

eng muhimi biz ularni Masihga yaqinlashtirish orqali sevamiz. Bizning jamoatga tegishli bo'lishimiz, har ikkala vazifani o'z navbatida bajara olishimizga yordam beradi.

Butun jamoatning vazifasi nimadan iborat? Shogirdlar orttirishdan iborat. Har bir jamoat a'zosining vazifasi nimadan iborat? Xalqlar Xudoni tanib bilishlari, Unga o'xshash va Uning ulug'vorligini aks ettirishdan quvonch topishlari uchun shogird orttirishni birinchi o'ringa qo'yadigan shogird bo'lishdan iborat (Matto 5:16; Efesliklarga 3:10; 2-Petrus 1:3-4; Vahiy 7:9-12).

Muqaddas Kitobga Iqtiboslar

<i>Ibtido</i>	<i>Ezekel</i>
1-2 35	36:24-27 38
1-3 36	
3-11 35	<i>Hosheya</i>
12..... 36	2:16-23 37
	13:6 48
<i>Chiqish</i>	
34..... 44	<i>Matto</i>
	4:8-9 48
<i>Levit</i>	4:17 44
4..... 30	5:3-10 45
	5:16 52, 58
<i>Ester</i>	10:28 48-49
3:7-14 30	16:19 50
	16:26 48
<i>Sanolar</i>	18:18 44
50:6 31	18:18-20 50
	18:20 44, 50
<i>Voiz</i>	28:18 44
1:1-7 42-43	28:18-20 11
2:16 43	28:19 47
3:16 43	28:19-20 49, 56
10:8-9 43	28:20 52
<i>Isha'yo</i>	<i>Mark</i>
10:1 30	9:48 33
13-19 30-31	
<i>Yermiyah</i>	<i>Luqo</i>
31:31-34 38	10:25-37 31

<i>Yuhanno</i>	<i>1-Korinfliklar</i>
13:34-35 52	3:17 44
20:21 39	10:17 50
	10:31 45
<i>Havoriylar</i>	11:1 51
2:41 50	12:4-10 45
6:1 31	14:25 45
8:38 50	15:1-5 37
20:26-30 51	
	<i>2-Korinfliklar</i>
<i>Yoqub</i>	2:3 37
2:1-7 31	5:20 45
2:16 31	5:21 37
	6:16 44
<i>1-Petrus</i>	<i>Galatiyaliklar</i>
2:10 22, 37	4:1-7 37
2:12 52	5:22-23 45
	6:1 43
<i>2-Petrus</i>	<i>Efesliklar</i>
1:3-4 58	2..... 37
<i>1-Yuhanno</i>	3:10 58
2:3-5 41	4:13 22
3:2 38	4:15-16 51
	4:16 22, 56
<i>Rimliklar</i>	4:29 51
3:23 30	<i>Kolosaliklar</i>
5:8-9 37	3:1-17 40
6:23 30	
7..... 41	<i>1-Fessalonikaliklar</i>
8:21, 30..... 38	1:6-7 51

<i>2-Fessalonikaliklar</i>	12:22	44
3:7	51	13:7
		51
	13:17	51
<i>1-Timotiy</i>		
4:16	51	<i>Vahiy</i>
		7:9-12
		58
<i>Ibroniylar</i>		20:11-15
9:23	44	30
		21.....
		38



9 Belgi

SOG'LOM JAMOATLAR QURISH

Sizing Jamoatingiz Sog'lommi?

9Marks (9Belgi) xizmati Xudoning ulug'vorligini sog'lom jamoatlar orqali xalqlarga namoyon etish uchun jamoat yetakchilarini Kalomiy qarash va amaliy resurslar bilan qurollantirish maqsadida faoliyat ko'rsatadi.

Shu maqsadda biz jamoatlarga ko'pincha e'tibordan chetda qoladigan to'qqizta sog'lom jamoat belgisida o'sishiga yordam berishni xohlaymiz:

1. Expositio va'z
2. Xushxabar ta'limoti (doktrinas)
3. Yuqoridan tug'ilish va xushxabarchilikka doir Kalomiy tushuncha
4. Kalomga mos jamoat a'zligi
5. Kalomga mos jamoatdagi tartib-intizom
6. Shogirdlik va o'sish borasida Kalomiy qarash
7. Kalomga mos jamoat yetakchiligi
8. Ibadat amaliyotiga doir Kalomiy tushuncha
9. Elchilik xizmatiga doir Kalomiy tushuncha

9Marks (9Belgi)da biz maqolalar, kitoblar, kitoblarga taqrizlar va onlayn jurnallar yozamiz. Biz jamoatlar Xudoning ulug'vorligini namoyon etishlari uchun ularni qurollantirish maqsadida konferensiyalarga mezbonlik qilamiz, suhbatlar yozib olamiz va boshqa har xil resurslarni tayyorlaymiz.

60dan ortiq tillardagi kontent uchun bizning veb sahifamizga tashrif buyuring va bizning bepul onlayn jurnalimizni qabul qilish uchun ro'yxatdan o'ting. Bizning boshqa tillardagi veb sahifalarimizning to'liq ro'yxatini quyidagi havola orqali ko'rishingiz mumkin:

<https://www.9marks.org/international/>

uz.9marks.org



**KO'PROQ KITOBCHALARNI
VA MAQOLALARNI O'QISH
VA TINGLASH UCHUN
MARVARID XIZMATLARI
ILOVASINI YUKLAB OLING!**



Iso Masih mahalliy jamoatlarga buyuk topshiriq bergan. Ammo mahalliy jamoatlar ko'p hollarda Iso aniq nimani buyurgani haqida kelisha olmaydilar va o'z vazifalarini siyosiy yoki iqtisodiy yo'nalishlarga moslashtiradilar. Xo'sh, bu haqda Muqaddas Kitobda nima deyiladi?

Ushbu risolada Jonatan Liman Muqaddas bitiklarga tayanib, jamoatning asosiy vazifasi shogird tayyorlash va shogird bo'lish ekanini ta'kidlaydi. U imonlilarni Masihning chaqirig'iga amal qilish va butun dunyoga Xudoning ulug'vorligini namoyon qilish uchun shogird orttirish vazifasiga itoat etishga chaqiradi.

Jamoatga doir savollar turkumi jamoat hayoti haqidagi oddiy va keng tarqalgan savollarga javob berish orqali Muqaddas Kitobga asoslangan ta'lim beradi. Har bir kitobda Kalomga asoslangan javoblar, sog'lom jamoat amaliyotini va jamoatga sadoqatni rivojlantirishga bag'ishlangan materiallar taqdim etilgan.

Jonatan Liman (Ph.D., Uels universiteti) — 9 Belgi tashkilotining bosh muharriri va “Cho'pon bilan suhbat” dasturi boshlovchisi. U o'ndan ortiq kitoblar muallifi yoki muharriri bo'lib, bir qator seminariyalarda dars beradi. Jonatan rafiqasi va to'rt nafar farzandi bilan Vashington yaqinida yashaydi va Cheverli Baptist Jamoatida (Cheverly Baptist Church) oqsoqol bo'lib xizmat qiladi.